

TIRIK MAVJUDOTLARNI O'RAB TURGAN EKOLOGIK MUHITNING, INSON TOMONIDAN SALBIY TOMONGA O'ZGARISHI

Ilmiy rahbar: Y. Muydinova

Rahmatllayeva Parizod Toxirjon qizi

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya: *Inson hech qachon tabiatsiz yashay olmaydi, chunki u tabiatning ajralmas qismi hisoblanadi. Biz yashab turgan va bizni o'rab turgan olam xuddi onamiz kabi mehribon va jonkuyardir. Quyoshning har zarrasida, tuproqning har jismida tabiatning bizga bo'lgan mehribon taftini his etamiz.*

Kalit so'z: *Ekologiya, atrof-muhit, biosfera, tirik, antropogen, havoni, iqlim o'zgarishi, atmosfera, transport, xavf, halokat.*

Аннотация: *Человек никогда не может жить без природы, потому что он неотъемлемая часть природы. Вселенная, в которой мы живем и которая нас окружает, такая же добрая и живая, как наша мать. В каждой частице солнца, в каждом теле почвы мы чувствуем любящее прикосновение природы к нам.*

Ключевые слова: *Экология, окружающая среда, биосфера, живая, антропогенная, воздух, изменение климата, атмосфера, транспорт, риск, разрушение.*

Abstract: *Man can never live without nature, because he is an integral part of nature. The universe in which we live and which surrounds us is as kind and lively as our mother. In every particle of the sun, in every body of soil, we feel the loving touch of nature towards us.*

Key word: *Ecology, environment, biosphere, living, anthropogenic, air, climate change, atmosphere, , transport, risk, destruction.*

Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari global miqyosga ega bo'lib, O'zbekiston hududida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Birgina Orol dengizi falokati natijasida Markaziy Osiyodagi iqlim o'zgarishi dunyo ko'rsatkichlaridan ikki barobar jadalroq kechmoqda. Daryolar suvini shakllantiruvchi muzliklarning tez sur'atlarda erishi, chang bo'ronlari davriyligi va sonining ortib borishi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi, suv resurslarining taqchilligi kabi salbiy ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston iqlim o'zgarishi sohasida xalqaro hamjamiyat bilan faol hamkorlik qilishga tayyor va Mintaqaviy iqlim kengashini tuzish tarafdori. Bu haqda Senat raisi Tanzila Narbayeva Misrning Sharm al-Shayx shahrida BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi (SOR-27) tomonlarining 27-konferensiyasidagi nutqida aytib o'tdi. «O'zbekistonning asosiy maqsadi — amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlarga „yashil“ iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali iqtisodiy taraqqiyotga erishishdir. Bu yo'nalishda

iqtisodiyotning barcha sektorlarida ugleroddan kamroq foydalanishga o'tish va resurslarni tejash, samarali va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo'nalish hisoblanadi»

Ushbu muammolarga ilmiy yechim topish maqsadida 2022 yil 18 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Atrof muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan Davlat ekologiya qo'mitasi huzuridagi Atrof muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar belgilab berildi.

Institutda Yashil o'sish va iqlim o'zgarishi bo'limi tashkil etildi. Ekologik ta'limning asosiy tamoyillarini amalga oshirish, maktabgacha, maktab va oliy ta'lim muassasalarida ekologik madaniyatni shakllantirish, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasi mutaxassislarining malakasini oshirish, davlat, jamoat va yoshlar tashkilotlarining o'zaro hamkorligi masalalarini o'rganish maqsadida Ekologik ta'lim va targ'ibot bo'limi ochildi. Bundan tashqari institutga o'z vazifalarini hamda xo'jalik shartnomalari bo'yicha majburiyatlarini bajarish maqsadida tegishlicha oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarning professor-o'qituvchilarini, yosh olimlar va iste'dodli talabalarni, shuningdek, xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda vaqtinchalik ilmiy guruhlarini tashkil etish vakolati berildi.

Bizga ma'lumki: „Ekologiya“ – so'zining o'zi butun butun borliqdagi jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganuvchi tali'motdir. Odam esa – shu jonli tabiatning bir qismi, shuning uchun inson ekologiyasi va tibbiy ekologiya atrof-muhitda bor bo'lgan barcha omillarni hisobga olish kerak „chunki har qanday holda ham bu omillar oxir oqibat inson organizmiga o'z ta'sirini ko'rsatadi Ekologiya bilan bog'liq bo'lgan muammolar kompleks hisoblanadi, uning tutgan ro'lini baholash uchun, atrof-muhitning hozirgi holatini va insoniyatning hayoti shuningdek, faoliyatiga ta'sirini aniq baxolash uchun biosferaga antropogen ta'sirlarni hamma tomonlarini aniq o'rganish lozim.

Tirik mavjudotlarni o'rab turgan ekologik muhit, inson tomonidan salbiy tomonga o'zgartirib yuborildi, buni asosiy sababi zavod-fabrikalar, transport va ulardan chiqayotgan chiqindilar hisoblanadi. Har bir tirik organizm namlikka, ya'ni suvga bo'lgan ehtiyojini hamda ularning yashash joylarini hisobga olib qator ekologik guruhlar bo'lish mumkin.

Dunyo kundan kunga ko'plab ekologik muammolarga duch kelmoqd. Ushbu muammolarning ba'zilari, masalan, global isish, kislota yomg'iri, havoni ifloslanishi va suv ifloslanishini o'z ichiga oladi. Bu muammolarning eng katta sababi odamlar dunyodagi dominant turga aylanganidan keyin resurslarni tezda is'temol qilishidir. Dunyoni ko'p qismini suv tashkil etadi. Bu suvning ayrimlari odamlar uchun uzoq vaqt va toza ichimlik suvi uchun yetarli hisoblanadi.

Atmosfera ifloslanishining yuqori tezlashuvi ya'ni o'sishni boshlagan davr, albatta, sanoat bilan boshlangan davr hisoblanadi. Fabrikalarning barchasidan chiqadigan tutun va kimyoviy moddalar havoni kata miqdorda ifloslaydi. Global iqlimning eng katta sababi atmosferaga chiqarilgan karbonad angidrid gazi hisoblanadi. Dunyoda tirik organizmlar

uchun kislorodning asosiy manbaili o'rmonlar ya'ni o'simliklardir. Eng muhim ekologik muammolardan biri – o'rmonlarning yo'q qilinishi.

Xulosa qilib aytganda, sanoat korxonalarini chiqindilarini kamaytirish uchun avvalo, hozirgi zamon talabiga mos keladigan texnologiyalardan foydalanilgan holda chiqindisiz texnologiyadan foydalanishni yo'lga qo'yishimish maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, chiqindi masalasi ekologiyadagi muhim muammolardan biri bo'lib, ularni qayta ishlar va gigienik talablar bo'yicha ishlov berilsa iqtisodiy tomondan ancha foyda ko'ramiz, balki yerni, havoni, suvni, oziq-ovqat mahsulotlarini ifloslanishini oldi olinardi, insonlar sog'ligini muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega bo'ladi, va kelajak avlod uchun ham tabiatimizni tozaligini saqlagan holda kelajak avlodga yetgazgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. “Условная труда и охраны окружающей среды на стеклоизготовительных предприятиях”. Tadqiqot uz. ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ – АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР мавзусидаги конференция материаллари 2020 №21 31октябрь Ст-33

2. “Гигиеническая оценка Условий труда и охраны окружающей среды на стеклоизготовительных предприятиях” New Day in Medicine Новый День в Медицине. TIBBIYOTDA YANGI KUN №4(32) 2020 ст 73 [73]

3. ИНФОРМАЦИОННО ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА. «Ўзбекистоннинг умидли ёшлари» мавзусидаги 4-сон Республика илмий талабалар, магистрлар ёш тадқиқотчилар ва мустақил изланувчилар учун онлайн конференцияси [Тошкент; 2021] ст-153-155

4. Гигиеническая оценка и пути оптимизации водопользования сельского и городского населения в Республике Узбекистана области Ферганы. iScience Poland. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS. Issue 4(38) Part 2 COLLECTION OF SCIENTIFIC WORKS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE Ст 197-202 Warsaw 2021

5. Гигиеническая оценка и пути оптимизации водопользования сельского и городского населения в Республике Узбекистана. New Day in Medicine Новый День в Медицине TIBBIYOTDA YANGI KUN №2(34/2)2021 ст-73

6. ТВЕРДЫЕ БЫТОВЫЕ ОТХОДЫ (ТБО)- ГЛОБАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА МИРА. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 6 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 Ст 327-334

7. TIBBIY TA'LIM AMALIYOTIDA INTEGRATSIYALANGAN TA'LIM ELEMENTLARINI QQ'LLASH. ISSN 2181-0443 DOI: 10.24411/2181- 0443 Научно-практический журнал re-health journal Издается ежеквартально с 2019 года Журнал зарегистрирован агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента

Республики Узбекистан (№1297 от 10.06.2019 года). Журнал размещается в Научных электронных библиотеках (eLibrary.ru, CyberLeninka, GoogleScholar и UzSCI.uz). Ст 126-130

8. Aholidan hosil bo`ladigan qattiq maishiy chiqindilarni zararsizlantirish. INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE «BELARUS» INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE 19 november 2022 www.interonconf.com St 50-52

9. XX I Kўникмаларини оммалаштиришга қаратилган янги йўналишдаги ўқитиш сифатини оширишда инновацион ғояларнинг ўрни ва уларнинг аҳамияти ҳақида. Uzbek Scholar Journal Volume-10, Nov 2022 www.uzbekscholar.com 10.11.22 St 311-316

10. Hozirgi global ekologik muammolar va aholi yashaydigan hududlarni Qattiq mayishiy chiqindilardan holos etish choralari haqida. Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али Ибн Сино Научно – практический конференции с международным участием на тему: «Проблемы экологии и экологического образования» сборник тезисов 11-12,. 2022г

11. F.I. Salomova , SH.T. Iskandarova ,, Gigiyena Tibbiy Ekologiya “2020

12. <https://cyberleninka.ru>

13. <https://ekoliji.com>